

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017.
2. Boltaboev M.R., Tuxliev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. – T.: “Barkamol fayz mediya” nashriyoti, 2018-yil, – 412 b.
3. Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. // Monografiya. Zarafshon nashriyoti. 2017. – 300 b.
4. Safarov B.Sh. Milliy turizm bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 184.
5. Maxmudova M.R. Turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalish, vositalari va usullari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, №3, 2021. 398-b.

UO'K 338.48

## SURXONDARYODA TARIXIY-MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA HOS JIHATLARI

**P.O.Normamatova, o'qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov**

**Annotatsiya.** Turizm-uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari o'rtasida do'stlik va hamkorlikni bog'lashda muhim omil bo'lgan rishtalardan biridir. Odamlar yangi o'lkalarni kashf etish, dunyoni ko'rish va bilish, savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy va diplomatik aloqalarni o'rnatish maqsadida sayohatga chiqqanlar. Turizm odamlarning doimiy yashab turgan joyidan yoki mamlakatidan boshqa joyga yoki mamlakatga bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, dam olish, sog'lomlashish, mehmonda bo'lish, ish yuzasidan ayrim masalalarni hal qilish kabi maqsadlar uchun vaqtincha borib kelishi bilan bog'liq [1]

**Kalit so'z:** Sulton Saodat, Zul-Kifil, Fayoztepa, Chorustun, Jarqo'rg'on, Qirqqiz qal'asi, Hakim Termiziy majmuasi

**Аннотация.** Туризм является одной из связей, которая с древнейших времен является важным фактором в построении дружбы и сотрудничества между народами мира. Люди путешествовали, чтобы открывать новые земли, видеть и узнавать мир, развивать торговлю, устанавливать культурные и дипломатические отношения. Туризм связан с временным путешествием людей с их постоянного места жительства или страны в другое место или страну с целью содержательно провести свободное время, отдохнуть, оздоровиться, побыть в гостях, решить какие-то вопросы, связанные с работой.

**Ключевые слова:** Султан Саodat, Зул-Кирил, Файозтепа, Хорустун, Жаркорган, Кыргызский замок, Комплекс Хакима Термизи

**Abstract.** Tourism is one of the ties that has been an important factor in building friendship and cooperation between the peoples of the world since ancient times. People traveled to discover new lands, see and learn about the world, develop trade, and establish cultural and diplomatic relations. Tourism is related to the temporary travel of people from their permanent place of residence or country to another place or country for the purpose of meaningfully spending their free time, relaxing, getting healthy, being a guest, solving some issues related to work.

**Key words:** Sultan Saodat, Zul-Kifil, Fayoztepa, Chorustun, Jargorgan, Kyrgyz Castle, Hakim Termizi Complex

**Kirish.** Qadimiy Movarounnahr zaminida shuxrat qozonib jahon bo'ylab ilmu urfon taratgan Buxoro, Samarqand va Urganch kabi shaharlar sirasiga Surxon vohasi ham kiradi. Bunga, eng avvalo, Surxon vohasining qulay geografik joylashuvi ko'p jihatdan omil bo'lib xizmat qilgani sir emas. Boisi, mavj urib oqayotgan asov Oks daryosi sohilida qad ko'targan ko'xna Taramata shahri o'zining mustahkam mudofaa devorlari bilan jahon fotixdari ahamoniy shoxdar Kir va Doroni qamda makedoniyalik Iskandar Zulqarnaynlarni lol qoldirgan edi. Surxon vohasida joylashgan Termiz shahri Balx shahri kabi zardushtiylik va buddaviylik dinlariga ham maskan, ham Vatan ekani fanda allaqachon o'z isbotini topgandir. Bu ikki shahar mashhur Araks (Amudaryo)ning o'ng va so'l sohillarida joylashgan hamda doimiy ravishda birbirining ijtimoiysiyosiy hayotiga o'zaro ta'sir

ko'rsatib turar edi. O'ng sohil shaxri Termiz va chap sohil shahri Balx o'z tarixi hamda osoriatiqalari jihatidan qimmatli qirralarni namoyon etadi. Termiz hududida 2021-yilda "Sulton Saodat" yodgorliklar majmuasi, "Kokildor ota" va "Qirq qiz" kabi madaniy meros yodgorliklarini restavratsiya qilish maqsadida investitsiya dasturlariga tushirildi. Jumladan, hukumat qaroriga muvofiq "Sulton Saodat" majmuasini qayta rekonstruksiya qilish, masjid, maishiy xizmat shoxobchalari, kutubxona qurish, ziyoratgohni Termiz aeroporti va Hakim Termiziy majmuasi bilan bog'lovchi yangi yo'llarning qurilishi amalga oshirilmoqda. Termizning yana bir jahonga mashhur yodgorlik-Fayoztepani ta'mirlash va muzeylashtirish ishlari keng miqyosdagi xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirildi. 2002-2006-yillarda Fayoztepa buddaviylik ibodatxonasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Yaponiya Trast fondi homiyligi hamda YUNESKO ning O'zbekistondagi vakolatxonasi ishtirokida qaytadan to'liq qazib o'rganildi va ta'mirlandi.

Bugungi kunda Fayoztepa buddaviylik yodgorligi Markaziy Osiyoda ochiq muzey qo'riqxonaga aylantirilgan yagona arxeologik obida hisoblanadi. Fayoztepa Termizning kushon davri buddaviylik yodgorliklaridan biri. Fayoztepa Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi buddaviylik monastiri hisoblanadi va uning o'rnidagi eng dastlabki buddaviylik inshootiga miloddan avvalgi I asrda asos solingan. Milodiy I asrning birinchi yarmida monastir uzunligi 118,4 m, eni 53 va 54 m ga teng inshoot tarzida qayta barpo etilgan va milodiy IV asr oxiriga qadar yirik buddaviylik markazi sifatida mavjud bo'lgan. Kompleks uch qismdan ibodatxona, xo'jalik qismi va oshxonadan hamda alohida muqaddas buddaviylik inshooti-stupadan iborat.

**Adabiyotlar tahlili.** Surxon vohasidagi qadimiy minoralardan yana biri bu Jarqo'rg'on minorasidir. Minor qishlog'idagi bu minora peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar inshootning 1108-1109 yillar oralig'ida qurilganligidan dalolat beradi. San'atshunosme'morlarning ta'kidlashicha, uning umumiy balandligi 50 metrga yaqin bo'lib, hozir minoraning omon qolgan qismi 21,6 metrni tashkil etadi. Jarqo'rg'on minorasi qurilishida oddiy g'isht, ravoqlar va epigrafik hoshiyalar juda ustalik bilan qo'llanishgan, minoraning asosi baland sakkiz qirrali kursiga o'rnatilgan. Har bir qirraning markazida ravoqli taxmonchalar ishlangan, ana shunday taxmonchalardan birida joylashgan eshik orqali minora ichki qismidagi aylanma zinaga chiqilgan. Barcha minoralar kabi Jarqo'rg'on minorasi ham gumbazsimon muazzinxona bilan yakunlangan.

**Metodologiya.** Termiz shahrida joylashgan Sulton Saodat ziyoratgohi Termiz sayyidlari xonadonining X-XVII asrlar davomida qurilgan maqbaralaridan iborat bo'lgan o'ziga xos me'moriy majmuadir. Uning nomi Sulton Saodat, arab tilidan tarjima qilinganda-»baxtlilar sultoni» demakdir. Termiz sayyidlarining yetakchilari-naqiblari asrlar davomida "Sulton Saodat"-sayyidlar sultoni unvoni bilan sharaflanganlar. Ularning hilxonasi bo'lmish "Sulton Saodat" majmuasi bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Termiz sharqida joylashgan bu ziyoratgoh X-XVII asrlar davomida shakllangan maqbaralarni o'z ichiga olgan. Sulton Saodat Termiz sayyidlarining dahma maqbarasi sifatida mashhurdir. Bu oilaviy majmua asrlar davomida tashkil topgan butun boshli mukammal bir inshootdir. Majmuaning eng qadimgi qismi uning janubig'arbidagi XI asrda qurilgan baland gumbazli ayvon peshtoqi ostidagi go'rlar bilan to'la ikki maqbaradir. Ulardan birinchisining ichki o'lchami YuxYum, ikkinchisining 9x9 m bo'lib, ikkovini birlashtiruvchi gumbaz ostidagi keng maydon masjid xizmatini bajargan. Unda shakli turlituman o'yma g'ishtlar juda moqirona va turli uslubda terilgan. Birinchi maqbarada IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan shu atrofdagi yerlarning egaSi, obro'li oila boshlig'i, Muhammad payg'ambarning avlodidan hisoblangan Hasan alAmir ismli sayyidning xoki yotibdi. Bu zal har xil shakldagi g'ishtlar bilan turlituman uslubda terilgan. Unda Termiz sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lmish Hasan al-Amir (IX-asrning 2-yarmida vafot etgan) maqbarasi bunyod etilgan.

Xalq orasida Sulton Saodat majmui nomi bilan mashhur bo'lgan maqbaralar X asrda, qolganlari, asosan, XV-XVII asrlarda yonma-yon qurilib, uzun hovlining 2 tomonini egallagan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalar (9x9,05 m va 10, 15x 10,25 m) dan iborat. Hovlining turidagi peshtoq va ikki qanotidagi gumbazli maqbaralar bir xil tarhda, janubidagi maqbara zinalar hisobiga kichikroq ko'rinadi. Shimoliy-g'arbidagi maqbaraning qurilma va bezaklari oddiy g'isht (27x27x5 sm) dan juft-juft qilib terilib, mavjli bezak hosil qilingan. Ichki xona devorlariga g'ishtdan hoshiyali bo'rtma ravoqlar ishlangan. Janubi-g'arbdagi maqbara shimoli-g'arbdagidan bir oz kichik,

ko'rinishi oddiy, ganch suvoqli. Mazkur 2 maqbara orasidagi peshtoqli supa to'riga mehrob joylashgan. Sirkor koshinlar binoga alohida husn bag'ishlagan. Bu maqbaralarda o'sha davrga xos yulduzsimon guruh naqshlar, ganchkori bezaklar keng qo'llanilgan

Qirqqiz qal'asi-Termiz tumanidagi me'moriy yodgorlik (IX-X asrlar) Nima maqsadda qurilganligi (qal'a, saroy, xonaqoh, karvonsaroy) haqida ma'lumot yo'q. O'rta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal'a shahar tashqarisidagi qo'rg'on vazifasini o'taganligini ko'rsatadi. U dunyo tomonlariga moslab bunyod etilgan. Qal'a to'rtburchak tarhli (53,3x54,8 m), 2 qavatli, faqat yo'laklar umumiy balandlikda 2 qavatli bo'lib, xom g'isht (30 x 30 x 5 -5,5 sm) lardan qurilgan, toq va ravoqlarida shu o'lchamdagi pishiq g'ishtlar ham ishlatilgan; qalin devor bilan o'ralgan (tashqi devor qalinligi 2-2,5 m), burchaklari hajmdor burjlar bilan mustahkamlangan; burjlar oralig'ida toqlar bilan yopilgan ayvonlar joylashgan, tarzlariga bir maromda takrorlanuvchi tuynuklar ishlangan.

**Xulosa.** O'zbekiston hududi qadim qadimdan har bir tuprog'i, yurtning har bir qarich yeri, albatta, qadim o'tmishni o'z ichiga oladi. Huddi shunday O'zbekistonning ajralmas bir qismi bo'lgan Surxondaryoda ham juda boy merosiy tarixiy obidalar mavjud. Ushbu tarixiy obidalarning barcha qancha yillardan buyon turizmning markazlaridan biri sifatida katta shon-shavkatga ega. Bunday merosiy obidalarni asrash hamma uchun birdek mas'uliyat yuklamog'I lozim. Va shu bilan bir qatorda vohada xorijiy turistlarni tarixiy-madaniy obyektlarga tashrifini oshirishda. malakali mutaxassislar tomonidan ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil etish; - tarixiy madaniy turizmga oid turistik axborot markazlari faoliyatini rag'batlantirishda ilmiy-ommabop ma'lumotlarni radio, teleko'rsatuv hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish. Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilib, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish nafaqat, madaniy sohani qo'llab-quvvatlashga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatini taqdim eta oladigan sohalardan biri sifatida qarash kerak bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pardayev M.Q va boshqalar. Turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari. - T.: Fan va texnologiya, 2007. 6-bet.
2. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2020 y., 09/20/332/0693–son.
3. Pardaxol Ochilidiyevna (2021). Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi (Surxon vohasi misolida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 871-876.
4. Ochilidiyevna, N. P. (2022). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya Higher Education Institutions). Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 178-182.

UO'K 658.114.1

### O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*F.B.Qanoatova, o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizda isloxotlar sharoitida xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun yaratilayotgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, ayollar ishbiarmonligining o'ziga xos tomonlari, ayniqsa kasanachi va oilaviy tadbirkor ayollar faolligini ortib borayotganligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy islohotlart, biznes, ishbiarmonlik, xotin-qizlar, tadbirkorlik, raqobat, kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik

**Аннотация.** В статье рассматриваются правовые, социально-экономические условия, создаваемые в нашей стране для развития женского предпринимательства в условиях реформ, особенности женского предпринимательства, особенно возрастающая активность женщин-домохозяек и семейных предпринимателей.

**Ключевые слова:** экономические реформы, бизнес, бизнес, женщины, предпринимательство, конкуренция, домашнее хозяйство, семейное предпринимательство.

**Abstract.** The article discusses the legal, socio-economic conditions created in our country for the development of women's entrepreneurship in the context of reforms, the features of women's